



**JAHON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI
IQTISODIYOTNING TUTGAN O'RNI**

Berdiqulova Madina Zokir qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi madinaberdiqulova02@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot tushunchasi, uning xususiyatlari va jahon iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritib berilgan.

Shuningdek, O'zbekistonda ham bu sohani keng targ'ib qilish maqsadida chet el tajribasidan foydalanish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, zamonaviy texnologiyalar, "raqamlashtirish", axborot texnologiyalari, "Alibaba" internet-resurs, logistika.

Abstract: This article describes the concept of digital economy, its features and importance in the development of the world economy. It is also planned to use foreign experience in order to widely promote this industry in Uzbekistan.

Key words: digital economy, modern technologies, "digitization", information technologies, "Alibaba" internet resource, logistics.

Аннотация: В данной статье описывается понятие цифровой экономики, ее особенности и значение в развитии мировой экономики. Также планируется использовать зарубежный опыт в целях широкого продвижения этой отрасли в Узбекистане.

Ключевые слова: цифровая экономика, современные технологии, «цифровизация», информационные технологии, интернет-ресурс «Алибаба», логистика.

Tobora raqamlashib borayotgan hayotimizni bugungi kunda raqamli texnika va texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Shunday bir vaziyatda, bu jarayon, hattoki, iqtisodiyot sohasini ham chetlab o'tgani yo'q. Olib borilayotgan izlanishlar va tadqiqotlar natijasiga ko'ra, iqtisodiyotni raqamlashtirish har qanday sharoitda va har qaysi davlatda maksimal darajada rivojlanishga erishish uchun poydevor hisoblanadi. Shu sababli butunjahon davlatlari iqtisodiy taraqqiyotning asosi sifatida iqtisodiyotni raqamlashtirishni bosh masala deb hisoblamoqda va uni yuqori o'rirlarga qo'yib kelmoqda.

Raqamli iqtisodiyotga bo'lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar tufayli sezilarli darajada o'sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat taskilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi.

«Raqamlashtirish» so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalg etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet



buyumlardan tortib, elektron hukumatgacha bo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi.

Raqamli iqtisodiyot samaradorlikni oshiradi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo'llab quvvatlaydi. Iqtisodiy jarayonlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish samaradorlikni oshiradi va global qiymat zanjirlarida ishtirok etish imkonini beradi. Raqamlashtirish tranzit xarajatlarini kamaytirish, axborot assimetriyasini bartaraf etish, keng miqyosli va tarmoq natijalari iqtisodidan foydalanish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Bu omillar tufayli raqamli iqtisodiyot bozorlar va xizmatlar - ta'lim, sog'liqni saqlash, kredit, resurslarni va investitsiyalarni ko'paytirish uchun kengroq imkoniyatlarga ega bo'ldi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning o'sishi muammolarsiz bo'lmaydi. Raqamlashtirish yangi ish o'rinalarini yaratadi, eskilarini qisqartiradi va mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu o'sib borayotgan daromad tengsizligining asosiy sababi bo'lgan o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadi. Mehnat bozoridagi bunday o'zgarishlar xavotirli, chunki raqamlashtirish ishsizlikning oshishiga olib kelishi va daromad taqsimotidagi mavjud farqlarni ko'paytirishi mumkin.

Xususan, u internet bilan faol ishlovchi transport, savdo, logistika va shu kabi sohalar uchun cheksiz qulayliklar yaratadi. Ba'zi tadqiqotchilarningfikriga ko'ra, ulardagi elektron segmentning ulushi YaIMning 10 foiziga yaqin va aholining 4 foizini ish bilan ta'minlaydi. Eng muhimi, bu ko'rsatkichlar barqaror o'sib boradi. Shubhasiz, raqamli iqtisodiyot samaradorligiga nafaqat axborot texnologiyalarini qamrab olish va infratuzilmaning mavjudligi, balki biznes muhiti, inson kapitali va muvaffaqiyatli boshqaruvo vositalari kabi standart iqtisodiy mezonlar ham ta'sir ko'rsatadi. Binobarin, iqtisodiy taraqqiyot ularga tayanadi, demak, raqamli iqtisodiyotnirivojlantirishda bu mezonlar avvalgidek muhim ahamiyatga ega.

Raqamli iqtisodiyotning eng faol harakatlantiruvchisi davlatdir. U raqamli iqtisodiyotning asosiy mijozи va iste'molchisi hisoblanadi. Masalan, Xitoy bu maqsadlar uchun qariyb 9 milliard dollar sarfladi. Bozor kapitallashuvi 210 milliard dollardan ortiq bo'lgan Alibaba internet-resursi ushbu sarmoyalarning to'g'ri yo'naltirilganligini isbotladi.

Davlat boshqaruvida axborot tizimlari bilan ishlaydigan kadrlarni tayyorlash ushbu sohaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Masalan, o'tgan asrning 70-yillarda Belgiyada davlat organlari xodimlarini o'qitish va ularning ish joylarida to'g'ridan-to'g'ri tizimlarni sozlash uchun maxsus mobil mutaxassislar guruhlari (jumladan, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'qituvchilari va talabalari) tashkil etilgan.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi

PQ-4699-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidagi ayrim tashkilotlarning faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 409-son qarori bilan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzurida «Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi» davlat muassasasi tashkil etildi.



Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga oid milliy ko'rsatkichlar tizimi tarkibiga istiqbolda ko'shimcha quyidagi xalqaro institut va tashkilotlarning indekslarini kiritish ham uning yanada nufuzli bo'lislini ta'minlaydi, ham qamrov chegarasini kengaytirishga xizmat qiladi:

- telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi (Telecommunication Infrastructure Index – TII);
- internet tarmoq tayyorligi indeksi (Networked Readiness Index (NRI) – The World Economic Forum);
- bilimlar iqtisodiyoti indeksi (Knowledge Economy Index, KEI – European Bank for Reconstruction and Development, EBRD);
- global o'zaro aloqa tarmoq indeksi. Huawei yoki global ulanish indeksi (Global Connectivity Index – GCI);
- iqtisodiyotni raqamlashtirish indeksi (Boston Consulting Group (eIntensity));
- raqamli evolyusiya indeksi (Digital Evolution Index – DEI - Mastercard va □ Taftsa universitetining Fletcher nomidagi huquq va diplomatiya maktabi);
- raqamlashtirish imkoniyatlari indeksi (Digital opportunity index, DOI),
- xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU) va boshqa indikatorlar.

Ushbu xalqaro institutlar va tashkilotlarning indekslari «Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi» davlat muassasasi mutaxassislari tomonidan o'rganilmoqda hamda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yuzasidan asoslangan takliflar tayyorlanmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodiy jarayonlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan oqilona foydalanish samaradorlikni oshiradi va global qiymat zanjirlarida ishtirok etish imkonini beradi. Shuningdek, YaMM (YaIM) qiymatinng oshishi va iste'mol savatchasining kengayishiga keskin ta'sir qiladi. Shu bois, nafaqat, jahon mamlakatlari, balki O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonlarin tezlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.R. Raxmatov, ilmiy rahbar O. Qayumov, "JAMIYAT TARAQQIYOTIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING TUTGAN O'RNI"
2. Abdullayev Axrorjon Axadjon o'g'li, "RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHDAGI O'RNI"
3. https://ojs.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/433/222
4. <https://kun.uz/uz/news/2020/07/06/raqamli-iqtisodiyot-rivojlanish-trendlariva-xususiyatlari>
5. <https://fayllar.org/zbekistonning-tijorat-banklari-raamli-hizmat-krsatishnirivoj.html>
6. <https://azkurs.org/raqamli-iqtisodiyotda-davlatning-orni.html>